One of the most significant points, according to most researchers, is an increased sensitivity to language phenomena at the age of 5-6 years, due to the greatest intensity of language ability during this period and is an important prerequisite for the successful formation of elementary foreign language speech skills. A foreign language at an early stage is considered as a means of forming the child's intelligence and developing his abilities; as a means of self-awareness and self-expression; as a means of social interaction, through which the child masters the social world". Preschoolers develop the ability to understand by ear begins with of language units and speech units of perception of children utterances spoken by the teacher in the kindergarten, namely: greetings Good morning, Good evening; Dating My name is ... Here, check understanding by asking said question (And what is your name). The answer of the child who calls his name will indicate understanding of the question. The same question is asked to many kids. This is how an understanding of the chain of sounds of a given content in English is formed, that is, a speech unit that performs a specific communication task. This ensures repeated perception and involuntary assimilation-fixation in memory of what was said. At the initial stage of training, it is necessary to divide the speech message into semantic pieces in order for children to develop the ability to perceive, understand, and then actively process what is perceived. (For example, in the sentence Take it, please – three words). In addition, it is equally important to develop the ability to hold in memory longer and longer sound chains, that is, to distinguish auditory memory. First, kids learn to hold a word, a phrase, then a sentence, and finally a few sentences in their memory. For example, tiger, a tiger, a big tiger, This is a tiger. The tiger is a wild animal. It lives in the jungle etc. However, in the methodology, the problem of teaching preschoolers foreign languages is solved mainly in the aspect of using games in teaching, while other types of children's activities (application, modeling, construction, drawing, making crafts, etc.) are not given due attention in foreign language classes. The communicative method rightfully ranks first in the list of the most popular methods of teaching English. The game creates excellent conditions for mastering a foreign language, and it is especially productive in preschool age, So various game techniques are widely used that form the skills of mastering a foreign language in preschool children. The game continues to live in childhood, representing one of the main forms of modern life. The most playful period of childhood is preschool age. Authors A. A. Kataeva and E. A. Strebeleva called preschool age the age of sensory cognition of the surrounding. They write that “ during this period, children develop all types of perception - visual, tactile - motor, auditory, and form ideas about objects and phenomena of the surrounding world. The game is like a trial and error method in the process of child development.” Therefore, one of the goals that is clearly defined in the state curriculum for preschool institutions is the formation of communicative competence. Communicative competence should be understood as “the ability to use a foreign language flexibly and effectively in order to understand and transmit information”. Good motivation and creativity are important for successful learning for children, and learning in the form of a game is the best option. When teaching children to understand words in speech units, visibility is widely used. For example, through listening, preschoolers master words such as big, small, tiny, short, long in the structure “ This is a big (or small) ball.” in order to check the child's understanding of vocabulary, the child gives a short answer to the teacher's question or indicates the appropriate subject. It is very important for teachers and learners to understand the different methodologies. The best is to combine hand-made materials with factory manufactured materials. Children like to be engaged in practical, fun activities and exercises for kids, and participate in making things like Christmas postcards or birthday cards. There are several teaching methods which keep children's attention



and concentration at this age. They are as follows:

- method of practical works;
- method of drawing and conversation;
- method of singing and reading poems;
- method of total physical response.

In conclusion, we can say that, teaching English to pre-school children is undoubtedly meaningful if it meets a natural development of a child and it is appropriate to his/her age. Moreover, it is successful if the teacher of English has an adequate knowledge of the target language, masters relevant methodology of teaching English at this stage of education and s/he is enthusiastic about teaching young children. Then, it is also an asset for the child since s/he picks up the language in the same way as s/he acquires his/her native language.

References:

- 1.Senchenko - Senchenko, I. V., Angliyskiy yazik dlya rebyat doshkolyat. 2014- S.18.
- 2.Soxin F.A. Osoznanie rechi doshkolnikami i podgotovka k obucheniyu gramote // Vopr. psixologii. 1974. - № 1. - S. 138-142.
- 3.Zimnyaya - Zimnyaya, I. A., Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam v shkole.. — M.: Prosveshenie, 1991- S. 14.



ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Shodiyeva Mehriniso Islomovna
Hasanova Gulasal Qahramonovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

13 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida sinfdan tashqari ishlar, to'garaklarni qanday tashkil etish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, tadbirlar, to'garaklar, tanlovlar.

Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni doimiy va mavsumiy tadbirlarga ajratish mumkin. Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlarga kiradi. To'garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiydir. Ona tili to'garagining a'zolari soni 12-15 o'quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi ham mumkin.

To'garak har xil nomlar bilan nomlanadi. Masalan, “Ona tilim – jonu dilim”, “Til – dil kaliti”, “O'zbek tili davlat tili” v.h. Mashg'ulot 15 kunda bir marta o'tkazilgani ma'qul. Quyida to'garak mashg'ulotlaridan birini namuna sifatida keltiramiz:

5-sinflar uchun birinchi mashg'ulot

1. To'garakka nom qo'yish. O'quvchilarni to'garakning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. “To'garak bizga nima beradi?” mavzuida suhbat.

2. O'quvchilardan til odobi, so'zlash madaniyati xususida bilgan maqollarni so'rash va mazmunini sharhlash.

Topshiriqlar:

1. Til odobi va so'zlash madaniyati xususidagi xalq maqollarini yig'ish va ularning ma'nolarini aniqlash.

2. To'y-tomoshalarni ifodalovchi so'zlar lug'atini tuzish va ularning ma'nolarini sharhlash.

To'garak mashg'uloti dars mashg'ulotini takrorlamaydi, balki uni to'ldiradi va takomillashtiradi. Ona tili kabineti zamonaviy texnika vositalari, mashhur tilshunos olimlarning portretlari, donolarning til haqida aytgan hikmatli so'zlari, DTS talablari, tahlil namunalari, o'quvchilarning diktant, bayon va insho yozishlari uchun esdalik kabilar bilan jihozlangan bo'lishi, o'quv-metodik majmuani o'zida mujassamlashtirishi lozim.

Ona tili kabinetida ish qog'ozlaridan namunalar bo'lsa, o'quvchilar uchun ancha foydali bo'ladi. Metodbirlashma ona tili kabinetini zarur o'quv-tadrisiy qo'llanmalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berishi lozim.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish kabilar kiradi. Savol-javob kechasida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1-1,5 oy oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatdan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, “Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozuvlari qanday bo'lgan?”, “Lotin alifbosiga o'tish bizga nima beradi?” v.h. Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zoari savollarni yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar. Uchrashuvlar ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos-olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, bular orasida maktabning sobiq talabalari bo'lsa, ularni taklif etish juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1-1,5 oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radi.

Mushoira ona tilining muayyan bir bo'limi yoki bir necha kichik mavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Orfografiya”, “So'zning shakl va ma'no munosabati”, “Sodda gap turlari”



kabi.

Ko'rik-tanlovlar ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, agar boshlang'ich sinflarda “Kimning xati chiroyli?” kabi mavzular tanlansa, 5-6-sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insho bo'yicha tanlov o'tkazish mumkin.

Konferensiyalar ancha murakkab tadbirlardan biri bo'lib, u asosan 8 – 9va undan keyingi bosqichlarda o'tkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan o'quvchilarga ma'lum qilinadi: bu bosh mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri bo'yicha kimlar tayyorgarlik ko'rishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu bo'yicha 3-4 nafar o'quvchi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, ulardan biri asosiy ma'ruzachi, qolganlari qo'shimcha maruzachilar sifatida ishtirok etadilar.

Olimpiadalar ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo'lib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir. Bu tadbirga kuch sinashishni ixtiyor etgan barcha o'quvchilar ishtirok etishlari mumkin. Olimpiada g'oliblari maktab ma'muriyatining buyrug'i bilan rag'batlantiriladi.

Ona tili olimpiadalari yilda bir marta o'tkaziladigan tadbir. Bu tadbirning birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman(shahar)da, uchinchi bosqichi viloyatda va to'rtinchi bosqichi Respublikada o'tkaziladi.

Xullas, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular o'zaro bog'langan, biri ikkinchisini to'ldiradigan tadbirlardir. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishida to'garak a'zolari faol ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
2. A.G'ulomov, M.Qodirov “Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.



**SYUJET VA UNING UNSURLARI” MODULINI O‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Yusupova Sadokat Axmedjanovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

8 - maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

+99899 501 01 17

Yusupova Yorqinoy Ahmedjonovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

18 - maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

+99891 918 94 79

Annotatsiya: ushbu maqolada syujet va uning unsurlari, moduli haqida, modulni o‘qitishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdagi qulayliklar, ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, syujetli, rolli unsurlar.

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishining 80 foizi ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan; o‘qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy bo‘g‘inga aylanadi.

Har bir fan singari adabiyotshunoslik ham adabiyotning mohiyati, uning paydo bo‘lish asoslari, rivojlanish tamoyillarini o‘rganadi. Bu fan adabiy-badiiy asarlarning tuzilishi, tarkibi, adabiy-tarixiy jarayonda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Adabiyotshunoslik adabiyotning ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta’siri, adabiyotning boshqa fan, soha, tarmoqlar bilan aloqadorligini aniqlash bilan shug‘ullanadi. Adabiyotshunoslikning bundan boshqa vazifalari ham ko‘p. Shu boisdan adabiyotshunoslik nima ekanligini aniq, lo‘nda ta’riflash oson, jo‘n ish emas. Aslida ham murakkab hodisalarni, ayniqsa, ular nomoddiy bo‘lsa, sodda, barchani birday qanoatlantiradigan tarzda ta’riflab bo‘lmaydi. Chunki har qanday mukammal ta’rif-tavsif ham ularning mohiyatini to‘la-to‘kis ifoda etolmaydi.

Mana shu holatda ijodkor badiiy asar kompozitsiyasida muhim o‘rin tutadigan voqelik tavsifi bo‘lgan syujetga murojaat etadi. Syujet voqealari boshlanishi (ekspozitsiya), tuguni, rivoji, kulminatsiyasi va yechimi qahramonlar o‘rtasida kechadi. Syujet va uning unsurlari haqida ma’lumot berish adabiyotshunoslikda muhim sanaladi. Ushbu jarayonida an’anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalardan, xususan, interfaol metodlardan foydalanish oliy ta’lim tizimidagi filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun foydadan holi bo‘lmaydi. Interfaol metodlar mavzuning tezkor, obrazli va tushunarli yetkazilishida muhim omil bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik,



o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interfaol metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat, ya‘ni u pedagogik ta‘sir etish usullari bo‘lib, ta‘lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Kelajakda ta‘lim taraqqiyotining haqqoniy harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘qituvchi faoliyatini yangilashga, ta‘lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: «Zarqalam», 2006.
2. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germanevitik tafakkur. – T.: “Akademnashr”. 2014.
3. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: “Muharrir”, 2010.



SYUJET UNSURLARINING BADIY ASARNI TIZIMLI TAHLIL QILISHDA TUTGAN O‘RNI

Zaripova Shukurjon Otajon qizi
Rajapova Shahlo Shonazarovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

8 – maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada syujet unsurlarining badiiy asarni tizimli tahlil qilishda tutgan o‘rni haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: syujetlilik, lirik she’rlar, voqealar tizimi, kechinmalar.

Syujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, barcha turdagi badiiy asarlarda ham sujet mavjuddir. Faqat shunisi borki, har bir turda, janrda sujet o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, aksariyat lirik she’rlarda voqealar tizimi mavjud emas, biroq ularda o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji kuzatiladiki, bu ularning sujetini tashkil qiladi. Shuningdek, ba’zan kichik hajmli hikoya va novellalardagi sujet ham “voqealar tizimi” degan ta’rifga muvofiq kelmaydi: bunda bir hayotiy holat ichidagi o‘shish, rivojlanish kuzatiladi (Mas.: Cho‘lponning “Taraqqiy”, A.Qahhorning “Bemor” hikoyalari). Shu xil holatlarni ko‘zda tutgan holda adabiyotshunoslikda voqeaband sujet va voqeaband bo‘lmagan sujet turlari ajratiladi. Yana shuni aytish kerakki, ayrim adabiyotshunoslar (mas., G.Pospelov) fikricha, sujet epik hamda dramatik asarlarga xos bo‘lib, lirik asarlar sujetga ega emas. Boshqalar sujet deb atagan lirik asardagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivojini ular kompozitsiya bilan bog‘lab tushuntiradilar. Ya’ni, bu o‘rinda lirik asar kompozitsiyasi sujet (voqealar tizimi) o‘rnini bosadi, o‘y-kechinmalarni muayyan tartibda uyushtiradi. Bu xil qarashning qulayligi shundaki, u ishda terminologik chalkashliklardan qochishga, “sujet” deganda asarda tasvirlangan voqealar tizimini tushunishga imkon beradi. Kursimiz davomida biz ham shu xil qarashdan kelib chiqamiz va “sujet” deganda ko‘proq epik va dramatik asarlarga xos bo‘lgan sujetni, voqealar tizimini tushunamiz.

Mavjud darslik va qo‘llanmalarda sujetga M.Gorkiy tomonidan berilgan ta’rif keltiriladiki, unga ko‘ra sujet “u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir”. Biroq, ma’lumki, barcha badiiy asarlarda ham xarakter rivojlanishda, o‘shish va shakllanishda ko‘rsatilmaydi. Misol uchun A.Qahhorning mashhur “O‘g‘ri” hikoyasini olib ko‘raylik. Ma’lumki, bu hikoyada xarakterlar tayyor holda beriladi, voqea davomida rivojlanmaydi, - sujet bu o‘rinda voqeaning ichki rivojini namoyon etadi, xolos. Demak, M.Gorkiyning sujetga bergan ta’rifi universal bo‘lolmaydi, u ayrim tipdagi asarlarga (mas., “Qutlug‘ qon”, “Kecha va kunduz”) nisbatangina to‘g‘ri keladi. Modomiki biz “sujet” deganda epik va dramatik asarlarga xos sujetni nazarda tutarkanmiz, unda sujet asardagi “bir-biriga bog‘liq voqealar tizimi” yoki “konkret holat, bitta voqeaning ichki rivoji sifatida tushunilgani to‘g‘riroq bo‘ladi. Shu bilan birga, sujet voqealari davomida personajlar xarakterining ochilishi, shakllanishi ham bor narsa. Faqat bunga sujetning badiiy asardagi funksiyalaridan biri sifatida qarash haqiqatga yaqinroq, uni sujetning mohiyati sifatida tushunish xatodir.

Sujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so‘z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak. Demak, sujet asarda mavzuni shakllantirgani holda, uning qanday bo‘lishi mazmunga, muallifning ijodiy niyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Masalan, A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” uchun tanlagan sujetda Otabekning Toshkentdan, Kumushning Marg‘ilondan bo‘lishi – ijodiy niyat ijrosi uchun eng maqbul (optimal) variant. Negaki, romanning o‘zagi bo‘lmish “ishqiy-maishiy” sujet chizig‘ining Toshkent – Marg‘ilon orasida kechishi yozuvchiga o‘zini o‘ylatgan problemalar tadqiqi uchun zarur voqealarni asarga olib kirish imkonini yaratadi. Jumladan, Otabekning dor ostiga borishi, Toshkent isyoni, qipchoq qirg‘ini kabi voqealar asarga hech bir zo‘rakiliksiz, o‘quvchi xayolini band etgan Otabek – Kumush liniyasiga uzviy bog‘langan holda olib kiriladi va, muhimi, ular adibga shaxs erki, millat erki, millat taqdiri muammolarini atroflicha badiiy tadqiq qilish, fikrlarini ifodalash imkonini yaratadi. Ko‘rinadiki, sujetning badiiy asardagi eng muhim funksiyasi – badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalashga xizmat qilishida namoyon bo‘lar ekan.

Badiiy asar sujeti personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. Ma’lumki, keng ma’noda “harakat” so‘zi vaqt birligi davomida kechuvchi har qanday jarayonni anglatadi. So‘zning



biz ishlatayotgan maxsus ma’nosi ham mohiyatan shunga yaqin: “harakat” istilohi ostida personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o’y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham tushuniladi. Demak, “harakat”ning o’zi ikki turli ekan. Shunga muvofiq, bu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab sujetning ikki turi ajratiladi: a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan sujet va b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan sujetlar.

Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan sujetlarda personajlarning muayyan maqsad yo’lidagi xatti-harakatlari, kurash va to’qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu asosda ularning taqdirida, ijtimoiy mavqaida muayyan o’zgarishlar yuz beradi. Sodda qilib aytsak, bu xil sujetli asarlarda voqea to’laqonli tasvirlanadi, u o’z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Kelib chiqishi jihatidan sujetning bu turi qadimiyroq, xalq og’zaki ijodidagi sehrli ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, shuningdek, mumtoz she’riyatimizdagi dostonlarning ham shu xil sujetga egaligi buning dalilidir. Zamonaviy o’zbek nasrida ham sujetning bu tipi kengroq tarqalgan: “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug’ qon”, “Sarob” – bularning barida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Ayni paytda, bu asarlarda “ichki harakat” dinamikasi ham kuzatiladi, biroq u mavqe jihatidan sujet tipini belgilashga ojizlik qiladi. Sujetning ikkinchi tipiga asoslangan asarlar adabiyotimizda ancha keyin, 80-yillardan boshlab maydonga kela boshladi. Hozircha, sujetning mazkur navi nasrning kichik shakllarida, shuningdek, bir qator dramatik asarlarda (masalan, Sh.Boshbekovning “Taqrir eshigi”, “Eshik qoqqan kim bo’ldi” pesalari) sinab ko’rildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O’zbekiston”, 2000.
2. Ulug’ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: “Universitet”, 2005



БАДИЙ МАТН СЕМАНТИКАСИНИ ЎРГАНИШДА КОГНИТИВ ЁНДАШУВ

Ҳожанова Ўрингул Смайиловна,
Ўзджту мустақил изланувчи
e-mail: hojanova01@gmail.com

Аннотация: Ушбу илмий мақола инглиз, ўзбек ва қозоқ тилларида ўхшатишнинг бадиий нутқда ишлатилиши ва баъзи ишора (reference)ларнинг чоғиштирма талқинига қаратилган. Уч тил бадиий адабиётидаги тасвирий ўхшатишга когнитив ёндашув тилларнинг экспрессив қобилиятларини очиб берган ва изланишлар маҳсули сифатида ўхшатишини категориялаштиришга эришилган.

Калит сўзлар: тил воситалари, нутқ фигуралари, метафора, ўхшатиш, концептуал, когнитив йўналиш, матн семантикаси, коннотатив, денотатив маънолар.

Бадиий матн семантик, грамматик ва коммуникатив ва когнитив ёндашувларнинг объектига айланди. Матн семантикаси дастлаб матннинг мантикий ва грамматик структурасини ўрганган. Вақт ўтиши билан глобал, кўп даражали ва кўп ўлчовли матн семантикаси тамойилларига қайта йўналтирилган. Лингвистик семантиканинг бир тури саналган концептуал семантика, коннотатив ва денотатив маънога эътибор қаратади ва ўқувчиларга тасвирий тил воситалари, нутқ фигуралари ва метафора, ўхшатиш ва персонификация каби турли хил тасвирий-адабий воситаларни ўрганиш имконини беради. Тасвирий тил воситалари асосан ёзувчи томонидан турлича қўлланилади, шунинг учун у ўқувчиларга ҳар хил таъсир кўрсатади. Буни айниқса бадиий матнда кўп учратиш мумкин ва натижада кўпгина иборалар маъносини талқин қилиш учун махсус тасаввур ва концептуализацияни талаб қилади. Лакофф ва Жонсон тилдаги кундалик метафора маданият ва идрокка асосланганлигини таъкидлаган бўлсалар, Бонвиллиан лингвистик таҳлил, хусусан сўзлар ва иборалар асосан эътиқод ва қадриятга асосланганлиги борасида уларга қарши фикр беради.

Тил орқали инсон онгининг руҳий тузилишини ўрганиш имконияти кўплаб тадқиқотчиларни ўзига ром қилиб келмоқда ва бу изланишлар илмий долзарблигини сақлаб келмоқда. Когнитив тадқиқотлар нафақат тилни филологик ўрганиш, балки инсоният идроки маҳсули бўлмиш бадиий матнларни ҳам ўрганиб келмоқда. Когнитив нуқтаи назардан тилшунослар матнларнинг маъноларини турли контекстларда хариталаш орқали ўрганадилар. Тилшуносликнинг бу йўналиши матнни инсониятга ҳос мураккаб тузилган мулоқотнинг асосий элементи сифатида ўрганади.

Бадиий матн онгимиздаги кўплаб ассоциациялар ва когнитив тузилмалар манбаи сифатида мавжуддир. Бу матн тури уни талқин қилишимиз, тушунишимизнинг ижодий жараёнга, яъни дунёни тасвирлашда мустаҳкамланган, тўпланган тажрибамизни талаб қиладиган когнитив фаолиятга ундайдиган мураккаб тил шаклининг наъмунасидир. Концептуал(когнитив) йўналиш бадиий матннинг эстетик вазифаси ва авторнинг эстетик кредоси (дунёқараши, фикрлаши) ва дунёни идрок этиши, мақсад ва вазифасини ўрганади.

Тёрнер (1991, 1996) тилшуносликдаги анъанавий яни “адабиёт-бу тилнинг махсус, экзотик, таъсирчан субкатегорияси” дейилган фикрни бекор қилиб, “тил- адабий ақлнинг боласи” деган фикрни баён қилади. У инсониятнинг тил имкониятлари масал ва ҳикоянинг когнитив хариталаш, тасаввур қилиш орқали намоён бўлишини таъкидлайди. Гарчи Тёрнернинг далиллари кенг қабул қилинмаган бўлса-да, когнитив тилшуносликнинг пайдо бўлиши иккита фан: лингвистик семантика ва адабиёт назарияси ўртасидаги янги муносабатларнинг ривожланишига сабаб бўлди. Бадиий матнлар тил тузилиши, тилдан фойдаланиш тамойиллари, лингвистик таҳлиллар ва адабиётни когнитив талқин қилишда янгича манба сифатида истиқболли йўللар очиб берди. (Bizup and Kintgen 1993; Hart 1995; Jahn 1997; Crane and Richardson 1999; Jackson 2000)

Муаллиф ўзидаги ҳис туйғуларни, ассоциацияларни ўқувчисида ҳам уйғотишга интилади ва шу мақсадда бадиий матнда тилнинг турли тасвирий ва ифодали воситаларидан кенг фойдаланади. Бадиий нутқ ифодали воситаларга бениҳоя бойлиги билан фарқланади. Бадиий нутқнинг лингвистик жиҳатдан ранг-баранглиги, гўзаллиги, моҳиятан таъсирчанлиги кўп жиҳатдан бирор тушунчани турли лисоний воситалар орқали ифодалаш имкониятининг хилма-хиллиги туфайли вужудга келади. Негаки, бадиият сўз санъатининг муҳим кўриниши



ҳисобланади. Шу боисдан мазкур тадқиқотда инглиз, ўзбек ва қозоқ бадиий нутқининг ранг-баранг тил воситаларига эга эканлигини таҳлил қилишда ва ижодкорнинг сўз қўллашдаги маҳорати масалаларини бадиий матн ва бадиий наср материаллари асосида очишга ҳаракат қилинди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Lakoff, G., (1982). Categories: An essay in cognitive linguistics. LiMed. Linguistics in the morning calm: Selected papers from the SICOL-1981. Seoul: Hanship, pp: 139-193.
2. Lakoff, G., (1980). Metaphors we live by G. Lakoff & M. Johnson. Originally published: University of Chicago Press. Date Views 28.05.2016.
3. 3.Teun, A. van Dijk, (1985). Discourse and communication. Berlin/New York: de Gruyter.
4. Langacker, Ronald W. 1987. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I: Descriptive Application. Stanford: Stanford University Press Minsky, Marvin. A framework for representing knowledge. Cambridge, 1974.



MOTIVATIONAL STRATEGIES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Abdullayeva Sabohat Normatovna

Yangibazar district, Khorezm region

32th school English teacher

Alimova Dilafruz Baxramovna

Yangibazar district, Khorezm region

7th school English teacher

Annotation: this article covers motivational strategies in teaching English as a foreign language.

Keys words: motivational, strategies, individual, impudence.

Different helpful motivational strategies can be found by looking through the literature about foreign language teaching strategies. In this research paper several literature are addressed and suitable and viable strategies are provided.

Motivational strategies are techniques that promote the individual's goal-related behavior. Because human behavior is rather complex, there are many diverse ways of promoting it, in fact, almost any impudence a person is exposed to might potentially affect his/her behavior. Motivational strategies refer to those motivational influences that are consciously exerted to achieve some systematic and enduring positive effect (Dornei2001).

With respect to the various strategies promoting classroom EFL learning, there are several ways to organize them into separate 'themes'. We could, for example:

- focus on the internal structure of a typical language class and cluster the strategies according to the various structural units (e.g. strategies to present new material, give feedback, set up communicative tasks or assign homework).

- design a primarily trouble-shooting guide in which some particularly problematic facets of the classroom's motivational life are listed and suggestions are offered on how to handle these (e.g. how to deal with student lethargy; lack of voluntary participation; or anti-learning influences of deviant children).

- focus on key motivational concepts such as intrinsic interest, self-confidence or student autonomy and use these as the main organizing units.

- centre the discussion on the main types of teacher behavior that have motivating effects (e.g. showing a good example and modeling student behavior; communication and rapport with the students; consciousness raising about self-regulated strategies; or stage man-aging classroom events).

Although, all these approaches mentioned above have their merits, it was recommended to follow a fifth approach which focuses on the different phases of the process-oriented model described earlier (in Section 1). The model has been specifically developed for educational applications and it offers an important advantage over the other approaches: comprehensiveness. When planning on the structure of this qualification paper, it seemed to me that following through the motivational process from the initial arousal of the motivation to the completion and evaluation of the motivated action is in many ways more logical than making somewhat arbitrary decisions about which central themes the material should be built around.

Key units in this process-oriented organization include:

- Creating the basic motivational conditions
- Generating initial motivation
- Maintaining and protecting motivation
- Encouraging positive retrospective self-evaluation

Figure 1 contains a schematic representation of the system, with details of the sub-areas that will be covered.

Motivational strategies proposed by Dornei (2001), even those which are generally the most reliable, are not rock-solid golden rules, but rather suggestions that may work with one teacher or group better than another, and which may work better today than tomorrow. This is particularly true if we consider how varied language learning situations are worldwide. It is unlikely that, say, a group of pupils studying English in Uzbekistan will benefit from exactly the same strategies



as primary school learners of English in Hong Kong or university learners of Latin in Sweden. Differences amongst the learners in their culture, age, proficiency level and relationship to the target language may render some strategies completely useless/meaningless, while highlighting others as particularly prominent.

The framework is based on Dornyei's systematic overview of the extensive motivational techniques in teaching a second/foreign language (Dornyei, 2001b). The four dimensions include the macro-strategies associated with each dimension. Each dimension is associated with at least thirty macro-strategies, each of which was broken down into about one hundred micro-strategies in teaching a second/foreign language. This extensive list of recommended motivational teaching strategies has been frequently and widely utilized and modified by researchers to discover what specific strategies are perceived by students or language teachers as beneficial for the students' motivation in their particular context.

In the past, few studies aimed to find out whether the proposed strategies actually work in language classrooms (Dornyei&Csizer, 1998). The fact that there may be a discrepancy between the assumed and the actual motivational power of certain teaching strategies in second/foreign language learning has concerned second/foreign language scholars. Therefore, the existing recommended teaching strategies should be regarded as mere hypotheses to be tested in determining what strategies work in a certain second/foreign language classroom.

Language teachers may be a very relevant and valuable source of insights regarding what teaching strategies/methods work effectively to increase their students' motivation to learn a second/foreign language. However, many studies have not included the voice of one of the biggest stakeholders in second/foreign language learning: that is the learners.

References:

1. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. – Москва., 1985: – 10 - bet.
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: – 48-bet.



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA INSON TASHQI OLAMINI IFODALOVCHI O'XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Davronova Ziyodaxon Asqarali qizi.

Farg'ona davlat universiteti

Lingvistika (Ingliz tili) magistranti

davronovaziyoda92@gmail.com

Annotatsiya: Obrazli til vositalari nafaqat ingliz tilida, balki dunyoning barcha tillarida har doim qo'llaniluvchi ajoyib aloqa vositasidir. Obrazli til vositalari bizga nutqda ifodalamoqchi bo'lgan murakkab ta'riflar yoki his-tuyg'ularni tez va samarali yetkazishga yordam beradi. Ingliz tilida obrazli til vositalarini “nutq figuralari” deb ham ataladi. Og'zaki nutqda obrazli til vositalaridan auditoriyani o'z fikrlarimiz yoki ma'lumotlarimizga ishonitirish, jalb qilish va ular bilan o'zaro psixologik bog'liqlikni mustahkamlash uchun ishlatishimiz mumkin. Badiiy adabiyotda esa ushbu nutq figuralari o'quvchilarga asar yoki hikoyadagi holat va hodisalarni yanada yorqinroq tushuntirish uchun foydalaniladi. Ushbu obrazli nutq figuralarini qo'llash vaqtida shoir yoki yozuvchilardan yetarli darajada ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Kalit so'zlar: o'xshatish, obraz, nutq figuralari, metafora, qiyoslash.

KIRISH

Arkansas universiteti adabiyotshunoslari tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ingliz adabiyotida asosan 3 ta badiiy til obrazlaridan ko'proq foydalaniladi. Ular metafora, o'xshatish (ingliz tilida simile), tashxis yoki shaxslashtirish (personification). Bundan tashqari ingliz tilida tasviriylilik (imagery), simbolizm (symbolism), giperbola (hyperbole), solishtirish yoki taqqoslash (juxtaposition), paradoks (paradox) va boshqa til vositalari ham ingliz adabiyotida o'ziga xos o'rniga ega. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan 3 ta obrazli til vositalari nafaqat badiiy adabiyotda, shuningdek inglizlarning kundalik hayotida ham muhim rol o'ynaydi¹. Ushbu majoziy til vositalaridan, odatda yozma yoki og'zaki tilga ijodkorona yondashuv yoki murakkab fikrlarni tushuntirish uchun qo'llaniladi. Masalan, inglizlar tanasida qandaydir noxushlikni his qilsa, “oshqozonimda kapalak yuribdi” [butterflies in my stomach] deya o'zlarining holatlarini qay darajada ekanligini ifodalashga harakat qilishadi. Biror ishni qilish qiyinchiligini ifodalashda ular “tog'ni ko'chirishga o'xshaydi” [like a moving mountain] kabi o'xshatishlardan foydalanishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, insonlar ilmiy kashfiyotlar, ilmiy konsepsiyalar va boshqa ilmiy tushunchalarni oddiy so'zlar bilan ifodalagandan ko'ra, metaforalardan foydalanilganda tushunish ehtimoli yuqori bo'ladi. Umuman olganda, obrazli til vositalari ham badiiy adabiyotda, ham kundalik hayotda og'zaki va yozma nutqning asosiy «figura»laridan biri hisoblanadi².

Ingliz badiiy adabiyotida o'xshatish, metafora va tashxis.

Ingliz tilida o'xshatish [simile] ikki jism yoki holatni bir-biriga taqqoslanganda foydalaniladi va ko'pincha o'xshash, xuddi [like], -dek [as] kabi so'z va qo'shimchalar bilan ifodalanadi. “Simile” so'zi lotincha “similis” so'zidan kelib chiqqan va mos ravishda “o'xshash” degan ma'noni ifodalaydi. Ingliz adabiyotida o'xshatishlardan foydalanish XV asrdan boshlangan va Shekspir ham ushbu obrazli til vositasidan o'z asarlarida foydalangan. O'xshatishdan ingliz adabiyotida juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan:

«Uning siri, xuddi qulfi va kaliti yo'q eshikdek uning qiziqishini uyg'otdi.» [«The very mystery of him excited her curiosity like a door that had neither lock nor key.»]

Ushbu gap orqali yozuvchi boshqa bir insonning siri asar qahramoniga qanchalik qiziqish uyg'otganini ifodalash maqsadida qo'llanilgan.

Rafael Sabatini o'zining «Dengiz burguti» asarida ham obrazli til vositalaridan mohirona tarzda foydalangan. Misol tariqasida quyidagi o'xshatishni keltirish mumkin:

¹ Ashworth, E.J., 2017, ‘Metaphor and the Logicians from Aristotle to Cajetan’, Vivarium, vol. 45, pp. 311-327.

² Hausman, C., 2016, ‘A review of metaphorical theory and metaphorical reference revisited’, Semiotica 161 vol. 1, pp. 213-230.



«He swung a great scimitar, before which Spaniards went down like wheat to the reaper's sickle.¹»

“Ispanlar uning oldiga dehqonning o'rog'iga yopishayotgan bug'doy kabi kelishlaridan avval o'zining katta qilichini silkitdi”

Ushbu o'xshatishda yozuvchi ispan askarlarining ko'pligini chiroyli tarzda ifodalash maqsadida ularni daladagi behisob bug'doyga o'xshatmoqda. Dehqon bu yerda asar qahramoni sifatida gavdalandirilyapti, ya'ni u o'z “o'rog'i” bilan “bug'doylar”larni yakson qilishi lozim. Ingliz tilida o'xshatish va metaforalarning ajratishning eng oson yo'li o'xshatish yoki taqqoslashda gapda qo'llanilgan so'zlar yoki qo'shimchalarga e'tibor berishdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'xshatish [simile]ning bir nechta so'zlar va qo'shimchalar orqali aniqlasa bo'ladi. Masalan, in comparison, compared to, same, like, looks like, as va boshqalar. Metaforalar esa, aksincha, kundalik hayotimizda yuz beradigan voqea-hodisalar orqali fikrni ifodalashga harakat qilinadi. Ularda o'xshatishdagi “elementlar” yoki so'z-qo'shimchalardan foydalanilmaydi. Masalan,

“All religions, arts and sciences are branches of the same tree”. Albert Einstein. Out of My little years.

Tarjima: Barcha dinlar, san'at va fanlar bir daraxtning shoxlaridir”. Albert Eynshteyn. Yuqoridagi misolda olim metaforadan foydalanmoqda va butun bir boshli ilmiy haqiqatni birgina metafora orqali ifodalab bermoqda ya'ni barcha dinlar(islom,xristian,yahudiylik va boshqalar), san'at va fanlar(tabiiy va ijtimoiy fanlar), umuman dunyoviy va diniy bilimlarning asosi birdir degan ma'no tushuniladi. Metaforalarni qo'llash orqali fikrlar aniq va aynan qanday mazmunda ekanligini tushunish unchalik ham qiyin emasligini ko'rish mumkin. Shaxslashtirish yoki personifikatsiya [o'zbek tilida tashxis] insoniy bo'lmagan yoki mavhum narsalarga insoniy xususiyatlarni berishdir. Bular jismoniy sifatlar (“ignaning ko'zi”), hissiy atributlar (“yolg'iz tufli”) yoki inson harakatlari (“shamolda raqsga tushayotgan barg”) bo'lishi mumkin. Masalan,

“Because I could not stop for Death - He kindly stopped for me “

-Emily Dickinson, “Because I could not stop for Death”

Tarjimasi: Men o'limni to'xtata olmaganim uchun- uning o'zi mehribonlarcha men uchun to'xtadi. - Emili Dikkinson, “Chunki men o'limni to'xtata olmadim”

XULOSA VA MUNOZARA

Qisqacha qilib aytganda, ingliz badiiy adabiyotida qo'llanilgan metaforalarni tarjima qilishda, o'zbek tilidan ma'no jihatdan mos metaforalarni topib qo'llash juda ham qiyin. Buning sabablaridan biri, turli oilalarga mansub ikki xil til va turli madaniyatlardir. O'zaro madaniyatlararo farqlar va o'xshashliklarning hisobga olinishi tarjimashunoslikdagi eng muhim omillardan biri sanaladi. Bugungi kunda ingliz adabiyotini chuqur o'rganish, kamchiliklar va yutuqlarini tahlil qilish, izlanishlardan olingan bilimlarni o'zbek adabiyotiga tadqiq qilish, ushbu sohada yanada ko'proq rivojlanish bo'lishiga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, tilshunoslikda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar sonini keskin oshirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashworth, E.J., 2017, ‘Metaphor and the Logicians from Aristotle to Cajetan’, Vivarium, vol. 45, pp. 311-327.

2. Hausman, C., 2016, ‘A review of metaphorical theory and metaphorical reference revisited’, Semiotica 161 vol. 1, pp. 213-230.

3. Kosimov, A. (2022). TILSHUNOSLIK VA PSIXOLOGIYADA METAFORALARNING TUTGAN O'RNI, SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING METAFORALAR YASALISHI BORASIDAGI FIKRLARI.

4. Lakoff, G., 1993, ‘The contemporary Theory of Metaphor’, in A. Ortony (ed.), Metaphor and Thought, pp. 202-251, 2nd edn., Cambridge University Press, Cambridge 5.Petrilli, S., 2006, ‘Meaning, metaphor, and interpretation: Modeling new worlds’, Semiotica 161(1), pp. 75-117

1 Kosimov, A. (2022). TILSHUNOSLIK VA PSIXOLOGIYADA METAFORALARNING TUTGAN O'RNI, SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING METAFORALAR YASALISHI BORASIDAGI FIKRLARI



INCREASING THE ABILITY TO SPEAK ENGLISH

Eshonkulova Orzigul

Quvasoy city of Fergana region

7th General High School

English teacher

Artikova Mukhlisa

English teacher

Secondary School No. 20

Furkat District Fergana Region

Annotation: This article discusses some of the most important methods today for developing English speaking.

Key words: “assert your opinion”, “follow-up question”, fluent command of English

Pour the Conversational English Foundation. In order to teach conversational English effectively, you must first understand the importance of conversational strategy. As an English teacher, you have a fluent command of English. Therefore, you may forget the basic strategies of holding a meaningful conversation since it comes naturally to you. This is a common mistake many English teachers make, often giving a single topic to students and letting them loose to figure out conversational techniques on their own. In order to avoid common conversational English missteps, it is essential to present important foundational elements: for example, how to assert opinions, ask questions and use follow-up questions to keep a discussion moving forward. Before any conversational lesson, put these efforts into practice as a class.

Here are a few ways you can pour that conversational foundation:

Asking Questions and Asserting Opinions

Go around the room and ask students what their favorite food is. This will serve as the introduction to asking questions.

They may say “pizza” or “cheeseburgers.” Now you will use this as the catalyst for asserting opinions.

For example, one student may say, “Pizza.” You will then respond, “Oh, I like pizza too. But only cheese pizza, not pepperoni pizza.”

Explain how you asserted your opinion, and then move on to the next student. After a few repetitions, they will see how asserting an opinion works.

Follow-up Questions

Once your students have seen how to ask questions and assert their opinions, you can present follow-up questions.

Explain how follow-up questions keep a conversation moving forward and not stalling.

Going back to the previous example about different kinds of pizza, you can include a few follow-up questions like, “Do you like pepperoni?” or “Where is the best pizza place in town?”

Pouring a solid foundation for conversational English strategies will help build confidence, and it allows your students to see the basic elements of a discussion. Once the presentation stage is complete, let students ask you about your favorite foods following the same foundational format. You can even play a video to further their comprehension.

Employ the Coffee House Technique. Native English speakers have meaningful conversations every day. Most of them happen in a one-on-one scenario, like meeting a friend for coffee. The basics of conversational English evolve from pair interaction, and you can recreate the same evolution in your classroom. The best approach to employing the coffee house technique is to make it as practical and close to real life as possible, whether this means completely transforming your classroom into the set of “Friends” or simply bringing in a few coffee cups, napkins and other bits of coffee shop paraphernalia.

Here’s how coffee shop talk will look in your classroom:

First, transform your classroom into a coffee shop. This can be done as a class, or you can have it completed before your students arrive. You might find a couch or chairs in your school helpful for making the environment more casual.

Next, pair your students up. It is best practice to choose students with similar interests first



before challenging them.

Once in pairs, let the coffee talk begin. Give Student A and Student B cups of coffee and guide them through the conversation. For example, tell Student A his friend Student B has just lost his job. Or for kids and teens, the guided topic could be sports, homework or even favorite teachers. You may find that letting your students choose a topic is effective too!

Let the conversation move naturally and jump in when help is needed. You can simply say, “assert your opinion” or “follow-up question” since they will already have those terms down.

After a few rounds of different pairs, mix it up and pair boys with girls, or pair up students that otherwise never talk together. You should have a pretty good view of your students and the classroom dynamic before using this conversational English technique.

In conclusion, it should be noted that in order to develop English speaking, it is also important for the teacher to increase the child’s imagination, to develop skills in him by practicing in many cases.

References

1. <https://www.fluentu.com/blog/educator-english/teaching-conversational-english/>
2. <https://www.goabroad.com/articles/teach-abroad/teaching-english-to-complete-beginners>



“BOQIY DARBADAR”- HAYOTNI ANGLASHGA YORDAM BERUVCHI FALSAFIY ASAR

Fatxiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

*Dunyo – mislsiz evrilishlar, o'zgarishlar va ogohlantirishlar makonidir.
(asardan)*

Annotatsiya: Maqola Isajon Sulton qalamiga mansub “Boqiy darbadar” asariga taqriz sifatida yozilgan, tahlil qilingan. Mutolaa davomida kitobxonda yuzaga keluvchi savollar va asar mazmunidan anglashiluvchi javoblar xususida so'z yuritilgan.

Hayotdagi voqeliklarni o'z asarlarda turfa bir yo'sinda yoritib beruvchi yozuvchi, o'zbek adabiyotining noyob iste'dodga ega bo'lgan vakillaridan biri Isajon Sultondir. Uning noyob iste'dod egasi ekani 80 sahifadagina iborat bo'lgan, ammo o'zida ulkan ma'nolarni mujassam eta olgan mo'jazzina asarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ushbu “Boqiy darbadar” asari postmodernizm yo'nalishida yozilgan bo'lib, kitobxonni chuqur o'ylashga, fikrlashga undaydi. Kitobxon mutolaa davomida o'zidan qayta-qayta so'rovchi savol asar nima haqida yozilgani emas, balki “men nima uchun yashayapman?” qabilida bo'ladi.

Adabiyotshunos D.Quronovga ko'ra: “Boqiy darbadar”da an'anaviy eposga xos voqeaband syujet o'rnida sirtidan bir-biriga bog'lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo'lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma'nisiyu bashariyat taqdiri haqida o'yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi...(1)

Juda ham mukammal qilib yaratilgan kashfiyot - (sun'iy) odam shu darajada mukammal aql sohibi bo'ladiki, har narsani sarhisob qilib chiqib, nima uchun yaralganini bilmoq uchun qochib ketadi. Uni turli harbiy, konlarda ishlatish va hokazo maqsadlarda yaratgan edilar olimlar. U buni bilmaydimi? Yo'q, shunday mukammal sun'iy aql egasi qilib yaratilgan bu kashfiyot buni biladi, u “shuning uchun yaratilibman, shu qismatim ekan” deb yashamaydi! U behisob bilim egasi, insonlar ongini egallagan bekorch tashvish, urushlarni bir qismi bo'lish uchun yaratilmaganini tushunadi, albatta, barhayot odam bu hayotni rad etib, Yaratganni izlab topishni ixtiyor qilgan, butun bu borliqlarni yaratgan KIMDIR uning dunyoga kelishini nechun istaganini sababini qidira boshlaydi...

Darbadar - lanat tekkan, jazo tariqasida abadiylikka mahkum etilgan deya og'izdan-og'izga o'tgan etikdo'z, na ibodatlari, na bir tavbasi qabul bo'lmaydigan...

Mangulik nima? Mangulik asarda jazodek keltirilgan edi.

Foniy dunyoda mangulik bo'ladimi? Qat'iy qoidalar bilan boshqarilayotgan va yaratilgan bu hayotning insonlar tomonidan kiritilgan o'zgartirishlariga va kashfiyotlariga muhtojligi rostan ham yo'q. Lekin hamma nima bilandir band, bu olimlar, fozil-u fuzalolar va xattoki dindorlar misolida ham keltirib o'tilgan. Yaqinlariga, qilishi kerak bo'lgan amallarga vaqti yo'q, ammo mangulikni, barhayotlikni orzu qiladilar. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: inson yaqin kishilari bilan suhbatlashmasa, vaqtini birga o'tkazmasa, yoki uni Yaratgan zotga shukronalik uchun farz amallarni bajarmasa unga boqiy hayot nimaga kerak? Bu kabi savollarga professorning o'g'li tilidan yozilgan maktub javob bo'la oladi.

Lo'lilarga aylangan yurt qidirib chiqib bu yo'lda maqsadini ham unutgan badaviylar, darbadar, mangu shahar fuqarolari - ramziy obrazlar - aslida ular siz va biz emasmi?! Asarda keltirilgan Avliyo, Bonatti, Markes, asardagi har bir qahramon oxiri chang to'zonlar bilan yakunlanuvchi boqiy hayotning sahnalarida o'z taqdiri bilan yashab kelayotgan obrazlardir, har biri tahlil qilishga arziydi, boqiylikni orzu qilgan yoki jazo sifatida olgan qahramonlar boqiylik ham aslida zerikarli va ma'nisiz ekanini tushunib yetadilar. Hali buni totmaganlar buni orzu qiladi va kashfiyotlar orqali tinmay ana shu narsalarni amalga oshirishga harakat qiladilar, zero uchinchi parvonani holini qolganlar bilmaganidek ular ham, mangu hayotga buyurilganlarning kechinmalarini bilmas edilar.

“...Karvonboshi chol nabirasiga deydi: “Parvardigorning dargohi keng, u ko'p narsalarni sirlar pardasiga yashirgan. Odamlar ularning ba'zilarini biladilar, ba'zilarini bilmaydilar. Odam



bolasidan boshqa hamma (jonotlar) bir tilda gaplashadi, o‘g‘lim... Aslida, bunday sirlarni qancha ko‘p anglaganing sayin shuncha chuqur sukutga tolasan. Chunki ba‘zi bilimlar hatto halokatli bo‘ladi, bolam”

Halokatli bilim. Buni tasavvur qilish qiyinmi? Taassufki, qiyin emas. Odamzotning bilim ufqi bugun juda keng, cho‘qqisi juda baland. Ammo bu bilimdonlik faqat yaratishga, ezgulikka xizmat qilayotgani yo‘q. Dunyodagi favqulodda iste‘dodli olimlarning har to‘rtinchisi bugun ommaviy qirg‘in qurollarini takomillashtirish, yanada samaralilarini o‘ylab topish — o‘ldirish, yondirish ustida ishlamoqda. Ixtirolari uchun moddiy rag‘bat olishmoqda, martaba pillapoyalaridan yuqorilashmoqda. Inson o‘z qiyomat kunini o‘zi belgilaydi, degan gap shu emasmi?! Shu bo‘lsa, bilimdan balo ham kelib chiqsa (Griboedov), balkim bilish va anglash yo‘liga to‘siq qo‘yish kerakdir? Lekin kim qo‘yadi bu to‘siqni?(2)

“... Ha, inson bolasi uchun qiyomat jon taslim qilgan onidan boshlanmoqda... insonlar ana shu qiyomat kuniga duch kelmaslik uchun dunyoda iloji boricha ko‘proq muddat turishni orzu qilmoqda... o‘zlarining shusiz ham barhayotliklarini angalayolmasdan, vaqt o‘tgani sayin juldurlashadigan vujud libosi ichida mangu qolmoqni ixtiyor etmoqda edilar.” (3)

“... Bir qurt kelib, ko‘z o‘ngingizda kafanga kiryapti, hamda vaqti kelganida kafanidan kapalakka aylanib qanday uchib chiqishini sizga ko‘rsatib namoyon qilyapti-ku!”(4)

Yuqorida keltirilgan parchalardan, muallif bu dunyo va undagi bari narsalar, xatto inson tanasi, yoshligi, vaqti foni ekani, unda inson mangulikka ega bo‘la olmasligi, boqiy dunyo faqatgina Yaratganning ixtiyori bilan keluvchi qiyomat kunidan so‘ng kelishi mahorat bilan misollar ramzlar orqali ifodalangan.

“...Insonlar, men sizdan shu qadar ko‘p narsa o‘rgandimki... lekin anglaganim eng buyuk haqiqat – butun olam tog‘larning cho‘qqilarida yashashni istar ekan, haqiqiy saodat u yerda yashash emas, u yerga ko‘tarilishda ekan!”

Professor Ziyoning, Markesning, sayyohning yozganlaridan keladigan va asosiy xulosa bu: **abadiyat** - oila, do‘stlar, millat, xalqqa chin dildan Yaratgan yo‘lida xizmat qilishda, yaxshilik qilishda, insoniylikdadir. Bandalardan boshqa hech bir narsa so‘ralmagandek asarda...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. O‘ylashga undovchi asar. Sharq yulduzi / 2010 y, 6-son. B.15.
2. Ahmadjon Meliboyev. Rizq daraxti. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-boqiy-darbadar-ahmadjon-meliboyev-rizq-daraxti.html>
3. Sulton I. Boqiy darbadar. Sharq yulduzi / 2010 yil, 6-son.
4. Ko‘rsatilgan asar.



THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC READING MATERIALS IN THE DEVELOPMENT OF READING SKILLS

I.X.Mirzayeva
Sh.B.Rasulov
 Andijan Law
 College teachers

There are many references to authentic material in the ELT literature. Debates are still raging on why it should or should not be included in lessons, and how it is to be used or best exploited. Reading the literature, it is clear that those authors who support the use of authentic material have in common one idea: “exposure”. In other words, the benefit students get from being exposed to the language in authentic materials. Peacock (1997) defines authentic materials as materials that have been produced to fulfill some social purpose in the language community differentiates between “authentic” and “genuine material. He believes that Authentic would be material designed for native speakers of English used in the classroom in a way similar to the one it was designed for. For example, a radio news report brought into the class so students discuss the report on pollution in the city where learners live. Most of the time, though, this material is used in a genuine way, in other words, not in the way it was intended, but in a somewhat artificial way. For example, news article where the paragraphs are cut up and jumbled so students have to put them back together in the correct order. Teachers who hold positive beliefs towards using authentic material in the classroom, even when not done in an authentic situation, argue that Textbooks often do not display incidental English while authentic reading could be useful for many reasons, amongst which are: Students are exposed to real discourse, as in videos of

- interviews with famous people where intermediate students listen for gist. Authentic materials keep students informed about what is

- happening in the world, so they have an intrinsic educational value. As teachers, we are educators working within the school system, so education and general development are part of our responsibilities (Sanderson, 1999). They can produce a sense of achievement, e.g., a

- brochure on England given to students to plan a four-day visit. The same piece of material can be used under different

- circumstances if the task is different. Language change is reflected in the materials so that

- students and teachers can keep abreast of such changes. Reading texts are ideal to teach/practise mini-skills such

- as scanning, e.g. students are given a news article and asked to look for specific information (numbers, percentages, etc.). The teacher can have students practice some of the micro-skills mentioned by Richards (1983), e.g. students listen to news reports to identify the names of countries, famous people, etc. Books, articles, newspapers with a wide variety of text

- types, language styles not easily found in conventional teaching materials. They can encourage reading for pleasure because they

- are likely to contain topics of interest to learners, especially if students are given the chance to have a say about the topics or kinds of authentic materials to be used in class. On the other side, those holding negative beliefs against using authentic materials inside the classroom may claim that: They may be too culturally biased, so may cause some

- type of cross-cultural communication breakdown. The vocabulary might not be relevant to the student's

- immediate needs and above their levels; Hatch and Brown (1995) argue that vocabulary is the list of words that speakers of a particular language use. Words in this context means not only single items, e.g. “ dog “ but also string of words which together form one lexical item, e.g. idioms such as “ keep someone on his toe” or common expressions such as “ once upon a time”. Too many structures are mixed so lower levels have a

- hard time decoding the texts. Special preparation is necessary which can be time and

- effort consuming. With listening: too many different accents that are really

- too difficult to follow. Actually the most commonly used authentic reading materials perhaps are; newspapers, TV programs, menus, magazines, the internet, movies, songs, brochures, comics, literature (novels, poems and short stories), and so forth. A relevant example of involv-



ing using authentic magazine advertisements is the following: Students are set in groups of 3-4 and get some four adverts. They are to imagine they are working for an advertising agency and compare the ads taking into account the texts and the photographs. Students are to decide on which the best is and which the worst is. Then they redesign the worst ad, including the text. Ads with short texts might be used with slow learners, while those containing more complex texts are for intermediate or shinning students.

Some purposes of applying authentic materials in the classroom, there are:

1. The chance in receiving the real information and to find out what happened in the society of the world; in this situation, the students have an opportunity to explore and get the news of what happened of current issue

in so many part of the world. It is believed to be very motivating because the information that is served in authentic materials is truly pure made by the native speaker, then the students will try to give their best by being intense and focus in comprehending the material.

2. The students will earn the real language materials as much as possible; even if the classroom is not a “real-life” situation; authentic material plays the role in replacing the absence of the “real world” by giving the students the materials which are using and available in native speaker’s country only.

3. The materials give a sense of achievement to the learner; at first, the students may notice that the materials is different compare to the usual material that is used in the classroom every day. They probably do not realize that the usual materials is design just for pedagogical purpose. However, eventually students will acquire the feel of satisfactory and passion in learning the authentic materials because of they will be assured about the point that they are able to understand not only the easy/simplified English material but also the real one as well.

Overall, applying authentic texts in the classroom has many purposes. The students can be always up to date with the current issue in the world. And this is will increase students’ motivation in learning Reading Comprehension. Besides, authentic texts also bring students in real situation although classroom is not the real situation but authentic text can represent the absence of the real world, moreover authentic texts will help students in producing the achievement in classroom.



ABDULLA AVLONIY IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

Ortiqova Durdona Davron qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Avloniy ijodida ma'naviy- marifiy qarashlar, undagi ta'lim-tarbiya borasidagi fikr-mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ijod, shoir, pedagogika, she'r, masal, muallif, hikoya.

Abdulla Avloniy o'zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lib, XX asr ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgandir. Avloniy 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ijod qildi. Avloniy o'ziga “Hijron” taxallusini tanlaydi va shu taxallus bilan she'rlar bitadi. Abdulla Avloniy shoir, yozuvchi, dramaturg, ammo pedagogika uning hayotidagi muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatning ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan mustaqil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. XX-asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkiridir.

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” hamda “Birinch muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

A. Avloniy «Ikkinchi muallim» darsligida masallardan mohirona foydalangan, ya'ni undagi matnlarning 20 tasi masal janriga mansubdir. Muallif darslikdagi hikoya va masallarning barchasida ikki qarama-qarshi qutb yaxshilik va yomonlik, ahillik va xudbinlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi ijobiy va salbiy xususiyatlarni bir-biriga muqoyasa qiladi, xulosa «qissadan hissa»da esa ularni xolisona baholaydi. «Ikkinchi muallim»da bolalarning saviyasi, yoshlari o'sganligini hisobga olgan: ulardagi she'rlar va nasriy hikoyalar shaklan va mazmunan, ilgari surilgan masalalar ko'lamiga «Birinch muallim»dagiga nisbatan ancha keng.

Abdulla Avloniy «Ikkinchi muallim» darsligida ifodali hamda yoddan o'qish uchun maxsus she'rlar yaratdi. Shoir bunday she'rlarning tuzilishiga, musiqiylikiga, qofiyalarning, turoqlarning muntazamligiga alohida e'tibor berdi. Odatda, bunday she'rlarga muallif bilan bir qatorda o'quvchining ham his-tuyg'ulari singib ketadi. Demak, ifodali o'qishga qaratilgan she'rlar jarangdor, o'ynoqi, o'quvchining histuyg'ulariga she'riyatni-go'zallikni, badiiy so'zni his qilishga o'rgatish vazifasini qo'yadi. A. Avloniy o'quvchilarni estetik tarbiyalashda, ularning og'zaki nutqini o'stirishda maktabning pastki sinflaridayoq ifodali o'qish metodiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ham muallifning ushbu «Birinch muallim» va «Ikkinchi muallim» darsliklari usuli jadid maktablarida ancha keng qo'llangan va bir necha bor qayta nashr qilingan.

O'zbek dramaturgiyasining paydo bo'lishi va xalq orasida unga mehr uyg'otishda truppa va uning rahbari Avloniy muhim rol o'ynadi. “Advokatlik osonmi?” komediyasida advokat Davronbek orqali Turkistonda mavjud bo'lgan huquqsizlikni hamda dunyo voqealaridan bexabarlikni fosh etadi. Shu bilan bir qatorda qimorbozlar obrazi orqali xalqning ma'naviy turmushining tuban bir holga kelib qolganligini zo'r mahorat bilan ko'rsatib berdi. “Advokatlik osonmi?” pyesasi mavzu doirasining kengligi va badiiy darajasining pishiqligi bilan 1914-yilgacha yozilgan asarlarining yetuklari qatoriga kiradi. Mazkur asar mavzu va personajlarning ko'proq badiiy to'qima yo'li bilan tasvirlanishi, shu davrdagi boshqa dramalarga xos pand-u nasihatning imkon qadar chegaralanganligi pyesaning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Asar bosh qahramoni advokat Davronbekning so'zlarida nasihat va va'zxonlik mavjud bo'lsa-da, u umrida ko'p muammolarga duch kelgan, hayotiy muammolarni yengib o'tishga intilgan, baxtli hayot uchun kurashga o'tilgan inson sifatida namoyon bo'ldi [1].



Muallif nazarida boshiga ish tushgan bu kimsalarning og‘ir qismatiga sabab, avvalo, zamon va unda mavjud tartibotlarning norasoligi bo‘lsa, oxir-oqibat insonlarni asir qilib olgan qoloqlik muhiti, fuqarolarning sustkashligidir. Abdulla Avloniy pyesadagi g‘aflatda qolgan personajlar ahvoliga achinish hissi bilan birga ularni zamon tartibotlarini, o‘z haq-huquqlarini bilmaslikda ayblaydi. Bu qoloqlik, bu laqmalik va bilimsizlik asarning bosh qahramoni Davronbekning xalqdan, xalqning esa Davronbekdan bezor bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Asarda Davronbekka ko‘mak istab kelgan kimsalarning har biri o‘z dardlariga malham istaydilar va buni Davronbekdan ololmagach, alamlariga chiday olmay “eplolmas ekansan, advokatlik qilib nima qilarding?” – ma’nosida, unga “Advokatlik osonmi?” savoli bilan ta’na qilib chiqib ketadilar. Muallif bu voqealar orqali qonun ustivorligi bo‘lmagan mamlakatda hech qanday rivojlanish va huquq erkinliklari bo‘lmasligini amalda isbotlab beradi [2].

Abdulla Avloniyning barcha pyesalari sahnabop bo‘lib, bunday imkoniyatlarni “Advokatlik osonmi?” asarida ham kuzatish mumkin. U ijro uchun qulay, talqinida improvizatsiyaga keng imkoniyat ochib beradigan asar bo‘lganligi tufayli “Turon” sahnasidan tashqari ko‘pgina boshqa havaskor jamoalar e’tiborini ham o‘ziga tortdi. Birgina “Turon” teatrining o‘zida Mannon Uyg‘ur 1918–1919-yillari komediyani ikki bor sahnalashtirdi, spektakl repertuardan mustahkam o‘rin oldi va aktyorlar uchun ma’lum darajada mashq maktabi vazifasini o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya borasidagi qadrlidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar;

1. Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
2. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil.
3. K. Hoshimov, M. Inomova. “Pedagogika tarixi” Toshkent. 2006-yil.



ОНА ТИЛИ НАМДА АДАБИЙОТ ДАРСЛАРИ УЙГ‘УНЛИГИ

Parmanova Dilorom, Safarova Rayhon

Navoiy viloyat Xatirchi tumani 64-umumta’lim maktab

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Sinonimlar har bir til lug‘atining boyligi sanalib, nutqning jozibadorligini ta’minlashda asosiy leksik birlik hisoblanadi, birdan ortiq so‘zning ma’noviy teng kelish xususiyati ko‘pincha ularning biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanishiga imkoniyat yaratadi. Tildagi ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan¹. Badiiy nutqda sinonimlardan foydalanganda, ularda mavjud bo‘lgan ma’no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari inobatga olinadi. Ko‘pgina tilshunoslar sinonimlarning boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi muhim belgisi deb ularning semantik tuzilishidagi uslubiy bo‘yoqni bilishadi. Masalan, maktab o‘quvchilariga sinonimlar mavzusini she’riy matndan foydalangan holda o‘rgatish ularda nazariy bilimlarni mustahkamlabgina qolmasdan, estetik zavq ham bag‘ishlaydi. Ushbu jihatlarni o‘rganishda A.Oripovning she’rlaridan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchining ma’nodosh so‘zlar haqidagi nazariy bilimlari mustahkamlanadi. Masalan, shoirning “Diyor” she’ri shunday boshlanadi:

Ko‘pdir bu dunyoda ellar, elatlar, Qadim va noqadim xalqlar, millatlar. Bu o‘rinda *ellar, elatlar xalqlar, millatlar* so‘zlari sinonimik qator sanaladi, o‘qituvchi, albatta, bu so‘zlarning ma’no qirralaridagi farqqa to‘xtalmog‘i lozim va izohlardan kelib chiqib, *xalq* so‘zi dominanta – bosh so‘z ekanligini ta’kidlashi kerak. Masalan, *el* so‘zida “xalq, millat” tor ma’noda, *elat* so‘zida “kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi”² ma’nosi mavjudligini aytishi shart. Sinonimlarning yonma-yon kelishi mazmunni yanada aniqroq bo‘lishiga xizmat qiladi. Mazkur she’rning keyingi misralarida ham sinonimlar keltirilgan: *Ammo shu turfa xil, rangdor tuproqni, Kentlar va ovullar, shahr-u qishloqni Tutashtirib turar bir nom daf’atan, U ona diyordir, jonajon Vatan!*

Vatan, yurt, o‘lka, mamlakat, diyor sinonim so‘zlarida “Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat” ma’nosi birlashtiruvchi ma’no, “o‘rin-joy”, “yashash joyi” ma’nolari ma’no bo‘lakchalaridir. So‘zlarning har biri esa o‘ziga xos farqlovchi belgilarga ega. Masalan:

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo. Shoirilar bor o‘z yurtin butun - Olamaro atagan tanho. Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq, Qanotida kumush diyori, Bir o‘lka bor dunyoda biroq Bitilmagan dostonidir bori: Faqat ojiz qalamim manim, O‘zbekiston, Vatanim manim.

Ammo ko‘rinib turibdiki, keltirilgan so‘zlarning birortasida ham ularning o‘ziga xos belgisi aniq ko‘rsatilmagan. Ushbu ma’nodoshlik qatorida ham dominanta birlik *vatan* so‘zsidir. Qolgan ma’nodoshlar esa ushbu so‘z atrofida uyushadi. “Diyor leksemasi *Vatan* leksemasiga nisbatan kam qo‘llanuvchanligi bilan xarakterlanadi. Asosan badiiy uslubda qo‘llanadi. *Mamlakat* leksemasi esa ko‘proq ilmiy termin sifatida faol.”³ *O‘lka* leksemasi izohiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “aynan mamlakat” degan izohga to‘g‘ri kelamiz. *O‘lka* leksemasi ko‘proq badiiy nutqqa xoslanganligi bilan ahamiyatli.

Odatda, o‘qituvchi so‘zlarning ma’nolaridagi bo‘yoqdorlik, she’riy matnga xoslik xususida to‘xtalib va albatta, sinonim so‘zlarning kelishi she’rda bir so‘zning takror kelishining oldini olishi, so‘zlovchiga tanlash imkoniyatini berishi, ma’nodoshlar ifodani chiroyli, o‘ziga xosligini ta’minlai xususida fikr bildirmog‘i shart.

Ma’nodosh so‘zlarni she’riy matnlar asosida o‘rganish o‘quvchining ma’lum bir so‘zning ma’nodoshini oson topishiga va uni yodda saqlab qolishiga imkon yaratadi, shuningdek, uning og‘zaki nutqini o‘stirish, badiiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Shu orqali o‘quvchi o‘zi uchun yangi bo‘lgan so‘zlar bilan tanishadi va buning uchun o‘qituvchi unga ko‘mak beradi. “Ozarbayjon” she’rida sinonimlar juft misralarda keltirilgan: *So‘ylasin ming yillik*

1 .Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi.-T.:Mumtoz so‘z. 2010. -B 205.

2 O‘TIL. 5-jild. -T.: O‘z ME, 2008. 30-b.

3 O‘roqova Z. Maskan otlari lug‘aviy-ma’noviy guruhi va uslubiy xususiyatlari: Filol fan.nomz. diss.-T., 2011.



*mo'ysafid tarix, Bu do'stlik bilganmi **shubha, gumonni**. O'zbekman, anglamay qayoqqa bordim, Shu inja ozariy **tilni, zabonni**. Do'stlik – bu muhabbat yanglig' farahkim, Bilgay u na **hadni** va na **dovonni**.*

O'quvchi sinonimlarning qaysi biri yozma (shubha), qaysi biri og'zaki (gumon) nutqqa xosligini farqlay bilishi shart, bu uning yozma va og'zaki nutqining shaklanishi uchun muhim sanaladi. Ma'nodosh so'zlarni she'riy matnlar asosida o'rganish orqali o'quvchi sinonimik qatordagi so'zlarning yangilik yoki eskilik (zabon so'zi) bo'yog'iga egaligi haqida bilib oladi. Yoki u savol berilganda chegara so'zining ma'nodoshlarini topa olmasligi mumkin, keltirilgan she'riy parcha orqali bu so'zning *had, dovon* ma'nodoshlari mavjudligi va ularning o'zlashma so'z (*had* - arabcha, *dovon* - forsha) ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi hamda o'z so'z boyligini oshiradi.

Maktab o'quvchilariga sinonimlarni zamonaviy she'riy matnlar asosida o'rgatish o'quvchining lug'at boyligini boyitadi, sinonimlarning nozik ma'nolarini farqlashni o'rganadi, adabiyotga mehr qo'yadi.



DEVELOPING STUDENTS' READING SKILLS BY MEANS OF BLOGS

Parpibayeva Maftuna Zafarjon qizi

Master of English Philology

Namangan State University

Annotation: This article discusses the benefits of teaching English through blogs.

Keywords: the internet, blogs, topics, texts

The use of a blog as a platform for extensive reading becomes valuable since it provides the possibility of readership and opportunity for interaction and collaboration. As the online journal facilitating users to display information in chronological order and connected to the Internet, the blog also can help students to get a wide variety of reading materials, which should be conducted in extensive reading activities. However, the use of a blog in this study is integrated with the process of learning in the classroom so that the students can use it for reporting their reading activities and share what they read beyond the classroom.

The current stage of the development of society is characterized by a strong influence on it of computer technologies that penetrate into all spheres of human activity, ensure the dissemination of information flows in society, forming a global information space. At present, a new education system is being formed in Russia, focused on entering the global information and educational space. The development of reading skills in English classes using the Internet is carried out mainly through the study of authentic texts, whether it be newspapers, magazines, fiction and scientific literature, using sites created in a foreign language.

It is known that the purpose of reading influences the choice of texts, their subject matter, and work with them. Of great importance is the cognitive and professional value of the text, its correspondence to the interests of the students and their age. In addition to the topics of the texts, it would be advisable to take into account the problems that are covered in the text. It is the problematics of texts that serves as a criterion for an adequate selection of language and speech material, contributes to the formation of the necessary language and speech skills. It also contributes to the solution of certain tasks of educating the student's personality. However, the same text can have different effects on different people and lead to different conclusions and points of view. Thus, we see that the role of the teacher in choosing texts and forms of working with them is important.

Taking into account the above information, we have selected authentic texts for the development of each type of reading - search, study, study and viewing.

Students were offered authentic texts on various topics, corresponding to the calendar plan of the discipline. Each text is followed by a series of exercises that contribute to the formation and improvement of reading skills. It is assumed that students perform this type of work outside the classroom, that is, remotely, using an Internet connection.

It should be noted that a teacher working in the distance education system must be a specialized professional with certain skills and abilities. He must be aware of the latest news, changes and developments in the discipline taught. One of the important components of the learning process, which includes the use of information technology, is the sufficient competence of the teacher in using a computer. In addition, such qualities as dynamism, vigor, the desire for self-development and continuous professional development, and innovation will be indispensable.

Experimental training took place in full-time and distance forms while teaching students the language of the specialty at an average level, and independent individual work of students was organized remotely on the basis of the developed blog and carried out in the form of independent individual work of students without the help of a teacher and independent individual work of students with the help of a teacher in the format of virtual consultations.

In conclusion, it can be said that, the processes of renewal in the field of teaching foreign languages at school create a situation in which teachers are given the right and opportunity to independently choose models for constructing courses in the subject, teaching aids and other teaching aids. In this situation, it is necessary to approach the solution of a number of methodological problems from the point of view of activating the activity of all participants in the pedagogical process, and above all, the teacher. It is the teacher in the new conditions who must choose from a variety



of methodological systems the one that is more in line with modern pedagogical realities and the specific conditions of teaching foreign languages.

REFERENCES

1. https://www.researchgate.net/publication/342333628_Blogging_in_Extensive_Reading_Students%27_Voice_in_Blended_Learning_Classroom
2. http://ext.spb.ru/2011-03-29-09-03-14/110-foreignlang/10253-Formirovanie_navykov_chteniya_na_urokakh_angliyskogo_yazyka_v_sredney_shkole.html



MATN USTIDA ISHLASH TEXNIKASI

Qirg'izoVa Feruza Suinboyevna

Norin tumani 15-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +998 99 480 16 86

ANNOTASIYA: O'quvchi nutqining mukammal san'at asaridek jozibali, ta'sirchan, shu bilan bir qatorda aniq va ixcham shaklda ifodalanishi uchun anchagina mehnat talab etiladi. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar keltirilgan

TAYANCH SO'ZLAR: Tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni, diagramma matni, auidiomatn, mumtoz matn, she'riy matn...

Matnlardagi iste'moldagi tarixiy so'zlar, nafaol yoki o'zlashma so'zlar izohini o'rganish, matnda ilgari surilgan g'oyani aniqlash barobarida har bir punktuatsion, orfografik va orfoepik qoidalariga asoslangan amaliyotlarni ham diqqat bilan o'rganmoq mahorat Maktabini o'taydi Demak, ona tili ta'limi o'qituvchisining vazifasi shogirdini ana shunday mahoratni egallashiga yo'l-yo'riq ko'rsatishdir. Quyida matn ustida ishlash texnikasini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

1. Matn g'oyasini aniqlash.

“Jadvalli test” usuli yordamida matnni didaktik tahlil qiluvchi topshiriq. Bunda o'quvchi ko'pvariantlilikka asoslangan topshiriqlar ustida ishlaydi. Natijada bir tomondan didaktik tahlil orqali matnning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini ochilsa, ikkinchi tomondan esa o'quvchining fikrlash doirasi o'rganiladi:

ROSTGO'Y BOLA (Turkman xalq ertagi)

Bir kishining o'g'li bo'lgan ekan. Ularning qirqta oltin tangasi bor ekan. Otasi shu qirq oltin tangani o'g'lining eski choponi yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo'shib yuboribdi.— O'g'lim, hecham yolg'on gapirma, halol bo'lg'in, — deb o'g'liga buyuribdi. Savdogarlar yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o'zaro maslahatlashib, „mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikin“ deyishibdi. Qaroqchilardan biri bolani masxara qilib so'rabdi:— Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?

— Menda qirqta oltin tanga bor, — deb javob beribdi bola.

— Senda qirqta oltin tanga nima qilsin? — deyishibdi qaroqchilar kulib.

Shunda bola choponining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko'rsatibdi.

— Nega bularni bizga ko'rsatding? — deb so'rashibdi qaroqchilar. — Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo'lsa buni ham olib qo'yamiz.

— Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on gapirma, deb o'rgatgan, — deb javob beribdi bola.

Hayron bo'lgan qaroqchilar savdogarlarga mol-mulkini, pullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi. (144 ta so'z)

Topshiriqlar bir necha variantli javoblardan iborat, to'g'ri deb javoblarni shartli belgilar asosida beriladi.

2. Mumtoz matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Bilamizki, mumtoz matnlarning aksariyati aruz vaznida yozilgan she'riy asarlardir. O'quvchini bunday matnlarni tahlil qilishi uchun, avvalo, ko'nikma hosil qilish kerak. Buning uchun, avvalo, “uy ishi”ga barmoq vaznidagi she'riy asarlarni nasriy yo'l bilan mazmunini yoritish kabi mustaqil vazifalar berib borilsa, gap tarkibidagi o'zgarishlar(inversiya)ni to'g'ri qabul qiladi va gaplarni odatdagi tartib bo'yicha joylashtira olishni o'rganadi. Kichik-kichik tarqatmalar shaklida mustaqil bajarish uchun qo'shimcha mashqlar beriladi.

3. Nazorat ishlari tahlili:

a) Xatolar ustida ishlash.

Bilasizki, yozma nazorat sinovi o'tkazilgandan so'ng, albatta, uning tahlili uchun qo'shimcha bir soat ajratiladi. Negaki, aniqlangan xatolarning yo'l qo'yilishiga sabab nimada ekanligini o'rganilmasa, o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bu kichik-kichik xatolar e'tiborsizlik tufayli nutqiy savodxonlikda jiddiy nuqson paydo bo'lishiga olib keladi. Eng avvalo, o'quvchini o'z ishini tahlil qila olishi va o'zga ishlar bilan qiyoslay olishi hamda baho bera olishiga o'rgatish



lozim. Bunda ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarni bartaraf etishning oddiy usuli hamkorlikda: jamoa bilan ishlash yaxshi natija beradi. Yozuv taxtasiga yo'l qo'yilgan xatolar birma bir yoziladi. “Bu – meniki!” ta'limiy didaktik o'yini orqali guruhlar xatolarni ajrata boshlaydi. Ha, anglaganingizdek, uch guruh: tinish

ishoraviy, imloviy va uslubiy xatolarni ajratib, uni to'g'ri variant bilan almashtiradi. Shu vaqtning o'zida javobga izoh berib o'tadi. b) Didaktik tahlil: Yuqoridagi jadvalli tahlil savodxonlik bo'yicha xizmat qilsa, mazmunini didaktik tahlil qilish usuli ham o'quvchining o'z ishiga xolis baho berishini ta'minlaydi. Jarayonni hamma, o'zlashtirishi va dunyoqarashi turli, o'quvchi uchun qulay tashkil etish maqsadida didaktik ta'lim usullaridan biri “Chiroyli nutq sohibi”ni o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunda jamoalar har bir o'qilgan ijodiy ishga munosabat beradi va baholaydi. Yuqorida ko'rilgan barcha ta'limiy usullar ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalarni qaysidir ma'noda ado etishda vosita bo'lishiga ishonaman. Davlat ta'lim standartida qo'yilgan talablar: mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgaralar fikrini anglaydigan –muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish kabilarni bajarishda

xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, o'quvchining qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, nutqiy savodxonligi mukammal darajada bo'lishi zarur. Ijodkorlik shakllangan bo'lishi zarur! Bu - davr talabi! O'z bilimini amaliyotda namoyon etishi uchun aniq, ravon va sof nutq egasi bo'lsinki, mamlakat taraqqiyotiga yetuk milliy kadr sifatida xizmat qilsin! O'zbek tilining juda katta imkoniyatlari xususida tanlagan sohasi orqali targ'ib qilsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –B.169.
3. “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo'yicha o'quv-metodik majmua.- Toshkent, 2016. –B. 42.



“ХАЙРАТ-УЛ АБРОР”ДА БАРКАМОЛ ТАЪСИРЧАНЛИК ТАМОЙИЛИ

Сайфиева Тожинор, Ражабов Шахноза

Навоий вилоят Хатирчи тумани 4-умумтаълим мактаб

Она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

Таълим-тарбия жараёнида устоз-шогирд тизимидан фойдаланиш Шарқ халқлари тафаккурининг ажралмас қисмидир. Айниқса, Шарқ адабиётида бу тизимнинг назарий ва амалий аҳамияти етарлича талқин қилинган. Поэтик тафаккурнинг нодир намунаси саналган Алишер Навоий асарларида айна тизимнинг бир қанча жиҳатлари ёритилганки, улардан бугунги таълим фаолиятида истеъфода этиш катта муваффақиятларга сабаб бўлади.

Ҳазрат Алишер Навоий асарлари инсоният тамаддунида бадиий ижоднинг энг сара намуналари десак, ҳеч бир муболага қилмаган бўламиз. Навоий асарларини ўқиб ўрганиш ҳар гал шундай ҳулоса чиқаришга асос беради.

Навоийнинг “Хамса” асари таркибига кирувчи илк дoston “Хайратул аброр”даги мақолотларда “руҳий тарбия” илмига оид юксак инсоний фазилатларнинг поэтик талқини баён қилинган. Иймон, адолат, сидқ, қарам, адаб, қаноат, вафо, ростлик, илм, нафрасонлик каби фазилатлар инсоннинг асл инсонийлик моҳиятига далолат қилиши ҳақида фикр юритилган. Асарда кетирилган юксак ва олийжаноб фазилатлар ҳаётда учраши мумкин бўлмаган, инсоният учун қўл етмас эстетик идеаллар эмас. Уларнинг барчаси воқеликда мавжуд, ҳазрат Навоийгача яшаб ўтган ёки муаллифга замондош бўлган реал тарихий шахсларнинг гўзал ахлоқ намуналаридир. Асарда келтирилган ҳикоятларда аксарият ана шу конкрет тарихий шахслар ҳаётидаги бирон воқеа қаламга олинган.

Таълим-тарбияда устоз ва шогирд орасидаги асосий восита сўз саналади. Устоз (педогог) рост ва таъсирчан сўз воситасида ўқувчи (шогирд)га руҳий-маънавий таъсир ўтказиш асносида унда билим ва кўникмаларни шакллантириб боради. Шу жиҳатдан, устоз-шогирд муносабатларида рост ва таъсирчан сўз энг муҳим ва катта аҳамият касб этади.

Ҳазрат Навоий талқинида инсон муаззам бир дарахтга қиёсланса, унинг ҳосили сўздир. Лекин у шунчаки сўз эмас. Инсоннинг қалб кўрида пишиб етилган, унинг моддий ва маънавий қиёфасини ўзида акс эттира оладиган, одамнинг феъли билан йўғрилган чинакам таъсирчан ва тирик ҳодисадир. Сўз билан берилган ёрдам ўрни келганда ҳисобсиз мол-дунё билан берилган ёрдамдан афзал бўлиши мумкин. Чунки сўзни Навоий “ўлимдан нажот” ҳамда “ўлик танга ҳаёт” берувчи восита деб ҳисоблайди.

“Ҳам сўз ила элга ўлумдин нажот,

Ҳам сўз ила топиб ўлук тан ҳаёт.

Бир сўз этиб онча балиятни даф,

Ким сочибон ганж етишмай бу наф...”¹

Агар инсон яхши сўз айтишга имкон топа олмаса, ёрдамга муҳтож кишига нисбатан қалбида бир инсонийлик туюши зарур. Бошқалар муваффақиятидан қувониш, дардига шерик бўлиш ҳам ўзига хос кўмак, аслида.

Навоий асарларида инсонга мол-дунё, мансаб-мартаба, илм, насл-насаб ёки бошқа тафовутлардан келиб чиқиб эмас, аввало, инсонлиги ва инсонийлиги нуқтаи назаридан баҳо берилади. “Хайратул аброр”да келтирилган Айюби халаф ва нохалаф ўғри ҳақидаги ҳикоятда айна шу ҳолатнинг гувоҳи бўлиш мумкин².

Ҳикоятда шайх Айюб кечаси ўз хужрасида ибодат билан машғуллигида бир ўғри лаҳм кавлаб хонага кириб боради. У ердаги ҳамма арзирли нарсаларни олиб, қайтиб кетаётганида юклари билан лаҳмга сиғмай қолади. Бу ҳолни тўғри англаган шайх ўғрига муруват кўрсатади ва эшикни очиб беради. Бундай қутилмаган муносабатдан қаттиқ таъсирланган ўғри шайх ҳузурида тавба қилиб, ўзининг ноҳўя ҳолатини ислоҳ этади.

Мана шу биргина ҳикоят воситасида муаллиф мураббий маҳорати, маърифий таъсир ҳамда маънавий камолот масаласини яққол ифода этган. Достондаги Боязид ва унинг шогирди,

1 Алишер Навоий. Хайратул аброр. Илмий-танқидий матн (тузувчи Порсо Шамсиев). Т.: Фан, 1970. – Б. 140.

2 Мазкур ҳикоят достоннинг XLVII бобида келтирилган. Қаранг: Алишер Навоий. Хайратул аброр. Илмий-танқидий матн (тузувчи Порсо Шамсиев). Т.: Фан, 1970. – Б. 143-144.



Иброҳим Адҳам ва Робиа, Шох Ғозий ва кампир, шер билан дуррож, Хожа Муҳаммад Порсо ва ўғли Абу Наср, Фахриддин Розий ва Хоразмшоҳ, Ҳотами Тоий ва ўтинчи чол каби ҳикоятларда ҳам айни шу каби таъсирчан услубнинг гувоҳи бўламиз. Биз бу ўринда биргина шайх Айюб ва ўғри ҳақидаги ҳикоятни қисқача таҳлил қилиш билан чекланамиз.

Одатда бирон номаъкул ишни кўрган киши биринчи галда зудлик билан уни инкор этиш пайида бўлади. Бунинг инкор этилувчига таъсири эса баъзан мулоҳаза қилинмайди. Айрим ҳолларда инкор худди сув оловни алангалантиргандай вазиятга мутлақо зид таъсир кўрсатиши мумкин. Адресатнинг ички ҳолатини инобатга олмасдан қилинган куруқ панд-насихат эса, ҳамиша кутилганидек натижа кўрсатавермайди. Бундай пайтда (мазкур ҳикоят воситасида) таълим-тарбияда кўпчиликнинг ҳаёлига келмаган янги бир йўл таклиф этиляпти. Бу адресатни ҳис қилиш ва ўзидан юқорироқ мартабада кўришдир.

Алишер Навоий таянган поэтик қонуниятлар, хусусан, мумтоз поэтиканинг назарий масалалари ўрганиладиган “балоғат илми”га кўра, ҳар қандай нуқсонлардан холи сўз ва гапнинг “муқтазои ҳол”га мувофиқлиги (“мутобақат”) энг етакчи аҳамият касб этади¹. Бу ўринда уч жиҳатга алоҳида эътибор қаратилади:

1. Турли нуқсонлардан холи сўз ва гап.
2. Нутқ ифода этилаётган пайт ҳамда нутқ йўналтирилган шахс (“мухотоб”)нинг қабул қилиш ҳолати.

3. Нутқ билан мухотоб ҳолати ўртасидаги айни мувофиқликнинг таъминланиши.

“Балоғат илми” олимларининг таъкидлашича, шу учта жиҳат нутқ эгаси (“мутакаллим”)нинг ўз мақсадига тўла етишиши учун баркамол таъсирчанлик воситасидир².

Ҳикоятда Айюб ўғрини жазолаш, инкор қилиш, айблаш, камситиш йўлидан бормади. Бир адашган, бечора ва гумроҳ кишига инсонийлик нуқтаи назаридан муносабатда бўлди. Уни инсон сифатида тўғри тушунди ва амалий ёрдам берди...

Ҳикоятни ҳақиқий маънода – фақатгина ҳаётини воқеликни поэтик акс эттириш натижаси сифатида ўрганиш ҳам мумкин. Бунда ўқувчи бир пайтлар тарихда икки киши орасида бўлиб ўтган кичик воқеа ҳақида маълумотга эга бўлади, холос. Ундан ўзига яраша хулоса чиқариши, ўрнатма ё ибрат олиши ҳам мумкин. Аммо асарга поэтик қонуниятлар, хусусан, Алишер Навоий ижодий методи принципларидан келиб чиқиб ёндашилса, янада кенгрок маънолар қатламига дуч келамиз.

Ҳазрат Навоий асарларида қаламга олинган реал тарихий воқелик бир вақтнинг ўзида мажоз сифатида ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Бунда кўзда тутилган маъно ва моҳият фақат келтирилган тарихий воқеани ифода этиш билангина чекланиб қолмайди. Ҳикоятдаги воқелик мажозий маънода тушинилса у муттасил кенгайиб боровчи маъно кўламига эга экани маълум бўлади. Бир қарашда фақат биргина тарихий воқеликни акс эттираётган поэтик ҳодиса айни пайтда барча замон ва маконлар учун хос бўлади ҳамда ўша ҳар бир замон, макондаги ўқувчини ўзига сиғдира олувчи поэтик формула вазифасини бажаради. Энг муҳими, барча сатҳларда ўқувчи руҳий маънавий савиясини кўтариш ва юксалтиришга хизмат қилади.

Ҳикоятдаги “Айюби халаф”, “тун зулмати”, “ибодат”, “хужра”, “ўғри”, “лаҳм”, “ўғирланиб қопга жойланган нарсалар”, “эшик” ҳамда “тавба” – буларнинг барчаси мажозий характер касб этади. Шу жиҳатдан, ҳикоятдаги Айюби халаф образи ҳар қандай ҳолатда инсонни тўғри тушуниб, саодат йўлини кўрсата олувчи (мураббий) шахс. Ўғри – ҳаётда муаммолар гирдобидан қолиб, йўлини йўқотган ҳамда йўлсизлик зулматида ўзига нораво йўл топиб олган, адашган кимса образи. Эшик – фақатгина хужрадан чиқиш эшиги эмас, мажозий маънода йўлини йўқотиб қўйган кимсанинг барча муаммолар гирдобидан чиқиш эшиги ҳамдир. Хужра – дунё. Ўғрининг олиб кетишга уринган, лекин олиб кетолмаган нарсалари эса, дунёдаги моддий бойликлардир. Инсон дунёга келиб олиб кетишга интилгани (моддий бойлик)дан кўра олиб кетгани (тавба) афзал экани; маънавий баҳрамандлик билан инсоннинг кўнгли чинакам хузур-ҳаловатга етишиши; шу орқали инсон ва умр моҳиятини англашга муяссар бўлиши ифода этилади.

Инсон тирик экан, ҳаётда турли йўлсизлик-чорасизликларга учраши мумкин. Лекин

1 Бу ҳақда қаранг: Хатиб Қазвиний Жалолиддин Муҳаммад ибн Абдурахмон. Талхисул Мифтоҳ. Байрут, Мактабатул асрийя. 2014. – Б. 38.

2 Қаранг: Шарифов З. Балоғат фани. Т.: Movarounnahr, 2014. – Б. 6-7.



бундай вазиятдан қандай чиқиб кета олиш баъзан катта муаммога айланади. Шунда инсонга суянч бўладиган, кўнглини тушунадиган, тўғри йўл кўрсатиш билан ёрдам бера оладиган бир елкадош зарур бўлади. Ҳикоятдаги Айюб образи фақатгина йўл кўрсатувчи эмас, инсон қалбидаги маънавий хасталикларни даволай оладиган ҳозик табиб ҳамда моҳир мураббий сиймосида акс эттирилган. Шунга кўра, Айюбнинг тутган йўли бир инсон ҳаётини тўғри ўзанга солиб юборган энг самарали усул бўлди.

Демак, ҳазрат Навоий ижодида сўз фақат қуруқ панд-насихатданиборат эмас. У инсониятга ўрناк бўлувчи чинакам ҳаётий жонли мисолларда мужассамлашишдан ташқари асл инсон – “аброр одам”¹нинг қалби амали ва тили бирлигининг нишонаси сифатида юзага келган. Қалб ва амал бирлиги сўз учун мустаҳкам икки асос вазифасини ўтайди. Шу сабабдан у баркамол таъсирчанлик хусусиятига эга.

Навоий ижодини ўрганиш орқали таълим-тарбия ва ҳақиқий ислоҳ аслида қандай бўлиши керак, деган муҳим ва долзарб саволларга жавоб топилади. Шу каби жиҳатларни мулоҳаза қилсак, ҳазрат Навоий ижоди ҳар бир давр учун ўта муҳим ва долзарб аҳамият касб этишига қайта-қайта амин бўламиз.

1 “Аброр одам” концепцияси ҳақида қаранг: У.Жўракулов. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т.: Академия ноширлик маркази, 2017. – Б. 18.



AN OVERVIEW OF APPROACHES IN EFL

Saymirzayeva Gulchexra G'ayratjonovna

Fergana district, Fergana region

21th school English teacher

Nishonova Tamanno Abdupattoyevna

Fergana district, Fergana region

21th school English teacher

Annotation: this article covers an overview of approaches in efl.

Keys words: motivational, strategies, individual, impudence, contribute, learning approach, academic.

Research studies show that in foreign language learning, a number of factors can contribute to differences in various learners' academic performance and attainment, such as age, gender, attitudes, aptitude, motivation, learning approach, language learning strategies and learning style (Dornyei, 1994; Dornyei&Csizer, 1998; Gardner, Tremblay & Masgoret, 1997; Ghenghesh, 2010; Kormos&Csizer, 2008; Liando, et al., 2005; Oxford, 1994). Among all those contributing factors, motivation has been regarded by researchers working in the field of second/foreign language learning as one of the most vital factors in the process of second/foreign language learning. With the proper level of motivation, language learners may become active investigators of the nature of the language they are studying (Kimura, Nakata & Okumura, 2001).

Along with ability, motivation is seen as the major source of variation in educational success (Keller, as cited in Schmidt, Boraie&Kassagby, 1996). Specifically, these researchers also suggest that motivation of a learner can indicate the rate and success of second/foreign language attainment. Therefore motivation is one of the main determinants of successful second/foreign language learning (Dornyei, 1994).

